

J.D.P.I. “Musiqqa madaniyati” fakulteti
Musiqiy ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi
Usmonova Madina Baxtiyor qizi
Ilmiy rahbar: J.D.P.I. “Musiqqa madaniyati”
fakulteti Musiqqa ta’limi kafedrası
o`qituvchisi Axrorova M.M

Buyuk kompozitor Friderik Shopenning hayoti va ijodiga nazar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Friderik Shopenning hayoti va ijodi yoritilib, kompozitor haqida bir qator qiziqarli ma`lumotlar bayon etilgan.

Tayanch so'zlar: Musiqqa, piano, mazurka, polones, raqs, sayohat, konsert, folklor, xalq, skerso, polsha.

Frederik Fransua Shopen eng buyuk polshalik kompozitor uning hayotiy ma'lumotlariga ko'ra u 1810-yil 1-martda Polsha poytaxti Varshavada unchalik uzoq bo'lmagan Jelyaz Volya degan joyda dunyoga keladi. Uning otasi Nikolas fransuz, nemis, poltak tillarini yaxshi bilgan, buxgalteriya hisobi, xattotlik, adabiyot va musiqani yaxshi bilgan. 1806-yilda Nikolas Jastin Krjijanovskayaga uylanadi va bu nikoh juda muvaffaqiyatli va bardoshli bolib chiqadi. Er xotin 38yil baxtli yashashdi.

Fredirik bolaligidan jonli musiqqa o'rab olgan muhitda katta bo'lgan. Onasi pianino chalardi va qo'shiq kuylardi, Otasi nay yoki skripkada unga hamrohlik qilardi. Shopen bolaligidanoq badiiy iste'dodlarini namayon qila boshladi, u tayyorgarliksiz she'r yozardi, rasm chizardi va musiqiy asarlarni ijro etardi. Iqtidorli bola o'z musiqalarini bastalay boshladi va dastlabki ijod na'munalarini yetti yoshida nashr qila boshladi. Voytsex jivniy rahbarligida 6 yoshli Shopen pianino darslarini muntazam olib borar edi, Voytsex o'sha paytda Fredirik

otasining maktabida xususiy o'qituvchi edi. Voytsex iqtidorli bolaga Mosart va Bax asarlarini o'rgata boshladi.

1821 yilda Fredirik birinchi o'qituvchisiga bag'ishlangan polonez yozdi. Asar bastakorning dastlabki saqlanib qolgan qo'lyozmasiga aylandi. 12 yoshida yosh Shopen Jivniyda o'qishni tugatadi va Yozef Elsner Varshava Konservatoriyasining asoschisi va direktori bilan yakka holda uyg'unlik va musiqa nazariyasi asoslarini o'rganishni boshlaydi. U 1823-yil sentabrdan 1826-yilgacha Varshava litseyida o'qidi va chex musiqachisi Vilgelm Vyurfel birinchi yilida unga organ darslaridan saboq beradi. Shopenning uslubi nihoyatda o'ziga hos ekanligini Elser tan olib, bastakorga individual reja asosida rivojlantirish erkinligini berdi. Shopenning xalqchil, vatanparvarlik, romantik ijodi-polyak musiqasini jahonga tanitdi. Noyob ijrochilik qobiliyatiga ega bo'lgan Shopen fortepiano musiqasining ifoda va texnik imkoniyatlarini kengaytirdi. Milliy ommobop raqs (polonez, mazurka va boshqalar) shakllarini badiiylashtiradi. Forteplano uchun 2-konserti, 3-sonatasida Betxoven simfonizmini va an'analarini davom ettirdi. Skerso, cholg'u, ballada, etyud, prelyudiya va noktyurnlarni mustaqil badiiy tugal asarlar darajasiga ko'targan.

Bastakor eng nozik ruhiy jarayonlarni aks ettigan, ayni paytda kuchli dramaturgik rivojiga ega bo'lgan asarlarida barcha ovozlarning kuychanligi, garmoniyaning o'ziga xosligi, o'zgarishlarga boy va kompozitsion mukammal rivoji bilan ajralib turadi. Shopen ijodiy hayoti davomida 16 polonez yozgan. 1817-1821 yillar yosh musiqachining iste'dodlarini rivojlantirish uchun boshlanish nuqtasi bo'lgan. Bastakor hayoti davomida asarlarini ko'p qismini chop ettirmadi. Shopen ijodiga nazar tashlar ekanmiz: unda Polsha milliy raqs an'anasi, qishloq folklor va shahar mehmonxona musiqa elementlarini birlashtiradi.

Shopenning deyarli barcha asarlari pianino uchun yozilgan. Skripka, violoncel va pianino uchun bir nechta asarlar, shu jumladan violonchel va pianino uchun

sonatadir. Bundan tashqari 20 ga yaqin maftunkor lirik qo'shiqlari bor, ularning aksariyati turli sabablarga ko'ra yaratilgan.

Shopen simfonik orkestr hamrohligida bir qancha konsert asarlarini yaratdi. Ular orasida ikkita pianino konserti, Mosart mavzusidagi variantlar, Polsha mavzusidagi fantaziya, Krakovich ruhidagi rondo, Revolutsionniy etyudlar. Shopen 1826 -1828 yillar mobaynida yaratilgan asarlari orasida Rondo va a-moll mazurkasi, hamda Motsart fantaziyasiga yozgan variatsiyalari misiqadagi milliy ruh va koloritning yangiligi bilan ajralib turadi. 30-40 yillar Shopen ijodida eng samarali yurish bo'ladi. Bu davrda kompozitor mazmunan eng teran va ahamiyatli, asarlarini yaratdi. Jumladan, 2-3- va 4-balladalari, b-moll va h-moll sonatalari, eng yaxshi polonezlari, shuningdek polonez fantaziyalari yaratilgan davr bo'ldi. Shopen hayotida sayohat katta ro'l o'ynagan. Shopenning sog'ligi asta sekin yomonlashib borgan. Parij shahrida betobligiga qaramay aravada sayohat qilardi. Pianino darslarini berishni davom ettirdi. 1849-yil 17-oktabr kuni ertalab soat ikkilarda 39 yoshida vafot etdi.

Polsha o'zining eng buyuk musiqachisini yo'qotdi va butun dunyo haqiqiy dahoni yo'qotdi. Uning jasadi Parij Lerez qabristoniga dafn qilindi va uning yuragi Varshava yaqinidagi Polshadagi Muqaddas xoch cherkoviga topshirildi. Rus musiqashunos Izabella Xitrikning so'zlariga ko'ra, Shopenning haqiqiy hayoti va uning valslari o'rtasidagi bog'liqlik juda yaqin va bastakorlarning valslar to'plamini o'ziga xos "Lirik kundalik" deb hisoblash mumkin. Shopen vafotidan so'ng Varshavadagi bastakor nomi bilan chambarchas bog'liq joylar bor. Juladan, Sakson saroyi, Kazimierz saroyi, Botanika bog'I, Krasinski saroyi, milliy teatr va hako'zolar.

Har 5 yilda Varshavada 1972-yildan boshlab eng mashhur pianinotchilar ishtirok etadigan xalqaro Shopen instituti ham tashkil qilindi. U jamiyatlar Avstriya, Germaniya, Chexoslovakiyada ham mavjud. Jelyaznova Volya Bastakor

tug'ilgan shahrida 1932-yilda Chopen uy muzeyi ochilgan. 2010-yil Polshada Chopen yili deb e'lon qilindi.

Bu kompozitor guvohi bo'lganimizdek, nafaqat o'z vatanida balki butun dunyoga tanilgan, eslab va sevilgan. Maqolamizda buyuk bastakor Chopenning tarjimai holi eng mashhur asarlari bastakor bilan bog'liq bo'lgan voqealar to'liq tasvirlangan. Yosh musiqachilar Chopenning tarjimai holini qisqacha o'rganadilar. Bu biz uchun yetarli emas. Shu sababdan buyuk kompozitorlarning hayoti va ijodini batafsil o'rganishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Галущенко И.Г. История музыки народов мира. Вып.3. Т., 2008.
2. История зарубежной музыки. Выпуск 1-6, М.-СПб., 1986-2001.
3. www.ziyounet.uz – O'zbekiston ta'lim portali